



ANALYSIS OF THEORETICAL APPROACHES TO THE STUDY OF GLOBALIZATION AND NATIONAL IDENTITY (BASED ON THE WORKS OF UZBEK SCHOLARS)

Husanjon Erkinovich Toshmurodov

Independent Researcher

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: husanboy3223@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: globalization, national identity, national self-awareness, anthropology of identity, axiological approach, information society.

Received: 28.07.26

Accepted: 29.07.26

Published: 30.07.26

Abstract: This thesis analyzes the theoretical approaches of Uzbek scholars to the study of the problem of national identity under the conditions of globalization processes. It provides a comparative analysis of the works of S. Otamurodov, B. Umarov, Sh. Madayeva, Z. Odinayeva, M. Ravshanova, X. Kadirova, A. Xursandov, X. Soqiyev, and D. Kalandarova, which are devoted to the political-philosophical and socio-economic analysis of globalization, as well as to the anthropological, axiological, comparative-philosophical, and socio-political aspects of national identity. The research findings show that in Uzbek scholarly literature, national identity under conditions of globalization is interpreted not as a static phenomenon, but as a multilayered, dynamic phenomenon shaped by the influence of various socio-cultural factors.

GLOBALLASHUV VA MILLIY IDENTITET TADQIQIGA DOIR NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI (O'ZBEK OLIMLARI MISOLIDA)

Husanjon Erkinovich Toshmurodov

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

husanboy3223@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: globallashuv, milliy identitet, milliy oʻzlikni anglash, identiklik antropologiyasi, aksiologik yondashuv, axborotlashgan jamiyat.

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi globallashuv jarayonlari sharoitida milliy identitet muammosini tadqiq etishga doir oʻzbek olimlarining nazariy yondashuvlari tahlil qilinadi. Globallashuvning siyosiy-falsafiy va ijtimoiy-iqtisodiy tahlili, milliy identitetning antropologik, aksiologik, qiyosiy-falsafiy hamda ijtimoiy-siyosiy jihatlariga bagʻishlangan S. Otamurodov, B. Umarov, Sh. Madayeva, Z. Odinayeva, M. Ravshanova, X. Kadirova, A. Xursandov, X. Soqiyev va D. Kalandarovaning ishlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, oʻzbek ilmiy adabiyotida milliy identitet globallashuv sharoitida statik emas, balki koʻp qatlamli, dinamik hamda turli ijtimoiy-madaniy omillar taʼsirida shakllanuvchi hodisa sifatida talqin qilinadi.

АНАЛИЗ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ К ИССЛЕДОВАНИЮ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКИХ УЧЕНЫХ)

Хусанжон Эркинович Тошмуродов

Независимый исследователь

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: husanboy3223@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализация, национальная идентичность, национальное самосознание, антропология идентичности, аксиологический подход, информационное общество.

Аннотация: В данной работе анализируются теоретические подходы узбекских ученых к исследованию проблемы национальной идентичности в условиях глобализации. В сравнительном аспекте рассматриваются труды С. Отамуродова, Б. Умарова, Ш. Мадаевой, З. Одинаевой, М. Равшановой, Х. Кадыровой, А. Хурсандова, Х. Сокиева и Д. Каландаровой, посвященные политико-философскому и социально-экономическому анализу глобализации, а также антропологическим, аксиологическим, сравнительно-философским и социально-политическим аспектам национальной идентичности. Результаты исследования показывают, что в узбекской научной литературе национальная идентичность в условиях

глобализации трактуется не как статичное явление, а как многослойный, динамичный феномен, формирующийся под воздействием различных социокультурных факторов.

Kirish. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida globallashuv jarayonlari ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotning deyarli barcha sohalariga chuqur kirib borishi natijasida ijtimoiy fanlarning eng muhim tadqiqot obyektlaridan biriga aylandi. Fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot-kommunikatsiya vositalarining kengayishi, xalqaro savdo va investitsiya oqimlarining ortishi, shuningdek, davlatlar o'rtasidagi siyosiy va madaniy aloqalarning kuchayishi globallashuvning asosiy omillari sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur jarayonlar nafaqat iqtisodiy integratsiyani jadallashtirdi, balki jamiyatlarning ijtimoiy tuzilmasi, qadriyatlar tizimi va madaniy rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning transmilliylashuvi milliy davlat institutlari, milliy suverenitet tamoyillari hamda milliy identitetning shakllanish va rivojlanish mexanizmlariga yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirdi. Shu sababli globallashuv va milliy identitet o'rtasidagi murakkab, ko'p qirrali hamda dialektik munosabatlarni nazariy jihatdan chuqur tahlil qilish zamonaviy ijtimoiy fanlarning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Muammoning dolzarbligi shundaki, ilmiy adabiyotlarda globallashuv ko'pincha madaniy unifikatsiya, standartlashuv va gomogenizatsiya jarayonlarini kuchaytiruvchi omil sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuvga ko'ra, global madaniyatning keng tarqalishi natijasida milliy madaniyatlar va an'anaviy identitet shakllari asta-sekin zaiflashishi yoki o'ziga xos xususiyatlarini yo'qotishi mumkin. Biroq amaliy tajriba va ko'plab empirik tadqiqotlar buning har doim ham shunday emasligini ko'rsatmoqda. Aksincha, globallashuv sharoitida ko'plab jamiyatlarda milliy va etnik identitetlarning yangi mazmun bilan boyishi, ularning zamonaviy sharoitlarga moslashgan holda qayta shakllanishi hamda ayrim hollarda yanada mustahkamlanishi kuzatilmoqda. Bu holat globallashuvning milliy identitetga ta'siri bir yoqlama emasligini, balki murakkab va ko'p omilli jarayon ekanligini ko'rsatadi. Mazkur ziddiyat va qarama-qarshi tendensiyalar turli nazariy maktablar, ilmiy yo'nalishlar hamda metodologik yondashuvlar tomonidan turlicha izohlanadi. Natijada ushbu masalani tizimli ravishda o'rganish, mavjud nazariy qarashlarni qiyoslash hamda ularning ilmiy asoslarini tahlil qilish zarurati yanada ortib bormoqda.

Tadqiqotning maqsadi globallashuv va milliy identitet o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni izohlovchi o'zbek olimlarining nazariy yondashuvlarini tizimlashtirish, ularning metodologik

asoslarini aniqlash hamda o'zaro qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish orqali milliy ilmiy adabiyotlarda shakllangan konseptual qarashlarning umumiy va farqli jihatlarini ochib berish, shuningdek, globallashuv sharoitida milliy identitetni tushuntirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarning imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash ko'zda tutiladi.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi tadqiqot vazifalari belgilandi: birinchidan, globallashuvning siyosiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatlarini tahlil qiluvchi milliy ilmiy tadqiqotlarni aniqlash hamda ularning asosiy nazariy xulosalarini tizimlashtirish; ikkinchidan, milliy identitet muammosining antropologik, aksiologik, madaniy va ijtimoiy-siyosiy jihatlarini yorituvchi ilmiy ishlarni tavsiflash hamda ularning konseptual xususiyatlarini tahlil qilish; uchinchidan, globallashuv va milliy identitet masalalari kesishgan nuqtalarda shakllangan nazariy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash hamda zamonaviy ilmiy diskursdagi o'rnini baholash.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan tizimli adabiyotlar tahlili (systematic literature review) tamoyillariga asoslanadi. Ushbu yondashuv mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni izchil saralash, tasniflash va qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi hamda o'zbek olimlari tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlarning umumiy tendensiyalari va o'ziga xos jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqotda asosiy e'tibor globallashuv va milliy identitet o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yorituvchi ilmiy manbalarning mazmunini tahlil qilish, ularning metodologik asoslarini baholash hamda nazariy xulosalarini o'zaro taqqoslashga qaratildi.

Tadqiqotning manba bazasini O'zbekistonda 2006–2022-yillar oralig'ida nashr etilgan, globallashuv va milliy identitet muammolariga bevosita bag'ishlangan monografiyalar, dissertatsiyalar va dissertatsiya avtoreferatlari tashkil etdi. Aynan ushbu davr tanlanishining asosiy sababi mamlakatda globallashuv jarayonlari, milliy taraqqiyot modeli hamda milliy o'zlikni anglash masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar sonining sezilarli darajada ortgani bilan izohlanadi. Tanlangan manbalar mavzuning turli nazariy va metodologik yo'nalishlarini qamrab olishi, shuningdek, globallashuv hamda milliy identitet masalalariga nisbatan shakllangan ilmiy yondashuvlarning evolyutsiyasini kuzatish imkonini beradi.

Xususan, S. Otamurodov hamda B. Umarovning globallashuvning siyosiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jihatlariga bag'ishlangan ilmiy ishlari globallashuv nazariyasining asosiy konseptual yondashuvlarini aniqlash nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Sh. Madayevaning identiklik antropologiyasiga bag'ishlangan monografiyasi shaxs, jamiyat va milliy identitet o'rtasidagi munosabatlarni antropologik nuqtai nazardan izohlashi bilan alohida e'tiborga olindi. Shuningdek, Z. Odinayeva hamda M. Ravshanovanning milliy identitetni aksiologik va qiyosiy-

falsafiy yondashuvlar asosida tadqiq etgan dissertatsiyalari milliy o'zlikning qadriyatlar tizimi hamda zamonaviy ijtimoiy transformatsiyalar bilan bog'liq jihatlarini yoritishi sababli tadqiqot doirasiga kiritildi. Bundan tashqari, X. Kadirova, A. Xursandov, X. Soqiyev va D. Kalandarovaning milliy identitetning ijtimoiy-siyosiy, mintaqaviy-etnik, madaniy hamda axborotlashgan jamiyat sharoitidagi rivojlanish xususiyatlarini o'rganuvchi tadqiqotlari ham tahlil predmeti sifatida tanlandi. Ushbu manbalar mavzuning turli ilmiy yo'nalishlar doirasida qanday talqin etilganini aniqlash imkonini berdi.

Manbalarni tanlashda ularning mavzuga bevosita aloqadorligi, ilmiy yangiligi, nazariy ahamiyati hamda globallashuv va milliy identitet o'rtasidagi munosabatlarni izohlashdagi konseptual hissiy asosiy mezon sifatida belgilandi. Shu tariqa, tadqiqot korpusi turli fan sohalari – falsafa, siyosatshunoslik, sotsiologiya va madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan ilmiy qarashlarni qamrab oldi.

Tahlil jarayonida qiyosiy-tavsifiy, kontseptual tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy-tavsifiy metod yordamida mualliflarning globallashuv va milliy identitetga oid nazariy qarashlari, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashtirildi. Kontseptual tahlil orqali esa har bir tadqiqotda qo'llanilgan asosiy tushunchalar, kategoriyalar va nazariy konstruksiyalar mazmuni o'rganildi hamda ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Umumlashtirish metodi esa alohida tadqiqotlarda ilgari surilgan g'oya va xulosalarni yagona nazariy tizim doirasida birlashtirish, ular orasidagi umumiy tendensiyalarni aniqlash hamda globallashuv va milliy identitet o'rtasidagi munosabatlarning konseptual modelini shakllantirish imkonini berdi.

Har bir ilmiy ish alohida holda uning tadqiqot predmeti, metodologik yondashuvi, nazariy asoslari va globallashuv hamda milliy identitet o'rtasidagi munosabatlarni izohlash usuli nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi. Bunday yondashuv turli mualliflarning ilmiy pozitsiyalarini tizimli ravishda taqqoslash, ularning konseptual o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda o'zbek ilmiy adabiyotida mazkur muammo bo'yicha shakllangan nazariy yondashuvlarning umumiy manzarasini yaratishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. O'zbek olimlari tomonidan globallashuv va milliy identitet o'rtasidagi o'zaro munosabatni nazariy jihatdan yoritishga qaratilgan tadqiqotlar turli metodologik yondashuvlar asosida amalga oshirilgan. Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, ushbu masala siyosiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, antropologik, aksiologik, qiyosiy-falsafiy hamda sotsiologik yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lib, har bir yondashuv globallashuv va milliy identitet o'rtasidagi bog'liqlikning muayyan jihatlarini yoritishga xizmat qiladi. Shu jihatdan o'zbek ilmiy adabiyotida mazkur muammo ko'p qirrali va fanlararo xarakterga ega bo'lgan tadqiqot sohasi sifatida shakllangan.

Globallashuv va millat munosabatini tizimli siyosiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilgan dastlabki tadqiqotlardan biri S. Otamurodovga tegishlidir. Muallif globallashuvni faqat iqtisodiy integratsiya yoki texnologik taraqqiyot mahsuli sifatida emas, balki siyosiy, mafkuraviy va madaniy omillarni ham qamrab oluvchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi. Tadqiqotda globallashuvning milliy davlat institutlari, milliy suverenitet, milliy manfaatlar va milliy xavfsizlikka ta'siri keng tahlil qilinadi. Muallifning asosiy xulosalaridan biri shundan iboratki, globallashuv milliy davlatchilikni inkor etuvchi yoki uni yo'q qiluvchi jarayon emas, aksincha, davlatlarni yangi xalqaro sharoitlarga moslashishga undovchi obyektiv tarixiy bosqich hisoblanadi. Shu bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilish, milliy qadriyatlarni saqlash hamda xalqaro hamkorlik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish globallashuv sharoitida davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida baholanadi.

Globallashuvning iqtisodiy va ma'naviy jihatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarda B. Umarovning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif globallashuvni faqat taraqqiyot omili sifatida emas, balki iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy ziddiyatlarni ham yuzaga keltiruvchi murakkab jarayon sifatida tavsiflaydi. Ayniqsa, uning tadqiqotlarida globallashuvning ma'naviy oqibatlari, ommaviy madaniyatning kengayishi, milliy qadriyatlarning transformatsiyasi hamda global standartlarning mahalliy madaniyatga ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Muallif milliy identitetning barqarorligi ko'p jihatdan jamiyatning ma'naviy salohiyati, tarixiy xotirasi va qadriyatlar tizimiga bog'liq ekanligini asoslaydi. Shunday qilib, B. Umarovning yondashuvi milliy identitetni iqtisodiy globallashuvning bevosita ijtimoiy va madaniy oqibatlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Milliy identitetning nazariy asoslarini falsafiy-antropologik nuqtai nazardan tadqiq etgan olimlardan biri Sh. Madayevadir. Uning monografiyasida identiklik inson tabiatiga tug'ma xos bo'lgan o'zgarmas xususiyat sifatida emas, balki tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy tajriba va madaniy muhit ta'sirida shakllanadigan dinamik hodisa sifatida izohlanadi. Muallif identiklik antropologiyasini mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida asoslab, shaxs, jamiyat va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni identitetning shakllanish jarayonlari orqali tushuntiradi. Ushbu yondashuv milliy identitetni biologik yoki etnik omillar bilangina emas, balki tarixiy xotira, madaniy meros, til, urf-odatlar va ijtimoiy institutlar bilan bog'liq murakkab ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Milliy identitetning aksiologik asoslarini o'rganishda Z. Odinayevaning tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Muallif milliy identitetni qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisa sifatida ko'rib chiqadi hamda uning shakllanish mexanizmlarini falsafiy-konseptual asosda tahlil qiladi. Tadqiqotda milliy qadriyatlarning tarixiy davomiyligi, ularning

zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni hamda globallashuv sharoitida milliy oʻzlikni saqlashdagi ahamiyati asoslab beriladi. Mazkur yondashuv milliy identitetni faqat etnik yoki madaniy birlik emas, balki umumiy qadriyatlar tizimiga tayanuvchi ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilish imkonini yaratadi.

Qiyosiy-falsafiy yoʻnalishda M. Ravshanovning tadqiqoti alohida eʼtiborga loyiqdir. Unda Yaponiya va Oʻzbekiston xalqlarining milliy identikligi qiyosiy tahlil qilinib, ikki jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, madaniy qadriyatlari va milliy oʻzlikni anglash mexanizmlaridagi oʻxshash hamda farqli jihatlar ochib beriladi. Bunday komparativ yondashuv milliy identitetning universal xususiyatlari bilan bir qatorda har bir xalqning tarixiy, diniy va madaniy rivojlanishiga xos boʻlgan oʻziga xos tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot milliy identitetni turli sivilizatsiyalar tajribasi asosida baholashning metodologik afzalliklarini namoyon etadi.

Milliy identitetning mintaqaviy-etnik jihatlarini X. Kadirovning tadqiqotida keng yoritilgan. Muallif qoraqalpoq xalqining milliy identiklik xususiyatlarini sotsiologik tahlil asosida oʻrganib, Oʻzbekistonning koʻp millatli jamiyat sifatidagi oʻziga xosligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, milliy identitet yagona universal model asosida emas, balki har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi, tili va urf-odatlarini bilan belgilanadigan oʻziga xos ijtimoiy jarayon sifatida shakllanadi. Bu esa mamlakatdagi etnomadaniy xilma-xillikni saqlash va rivojlantirishning muhim nazariy asoslarini belgilab beradi.

Milliy identitetning siyosiy sotsializatsiya bilan bogʻliq jihatlarini A. Xursandov tomonidan tadqiq etilgan. Muallif yoshlarning milliy-siyosiy identifikatsiyasi shakllanishida taʼlim tizimi, davlat siyosati, fuqarolik institutlari hamda ommaviy axborot vositalarining rolini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari yosh avlodning milliy oʻzligini anglash jarayoni tarixiy xotira, fuqarolik tarbiyasi va siyosiy madaniyat bilan chambarchas bogʻliq ekanligini koʻrsatadi. Bu yondashuv milliy identitetning faqat madaniy emas, balki siyosiy mazmunga ham ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida identitet transformatsiyasi masalasi X. Soqiyev va D. Kalandarovning tadqiqotlarida markaziy oʻrin egallaydi. X. Soqiyev axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida shaxs identikligining shakllanish xususiyatlarini tahlil qilib, raqamli makonning identitetga koʻrsatadigan taʼsirini yoritadi. D. Kalandarova esa axborotlashgan jamiyatda diniy omilning ijtimoiy identiklik shakllanishidagi oʻrnini tadqiq etib, diniy qadriyatlarning globallashuv sharoitidagi yangi funksiyalarini ochib beradi. Har ikkala tadqiqot globallashuv va axborotlashuv jarayonlari oʻzaro chambarchas bogʻliq ekanligini, ular milliy va ijtimoiy identitetga bir vaqtning oʻzida yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga, muayyan xavf va tahdidlarni ham yuzaga keltirishini koʻrsatadi.

Umuman olganda, qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek olimlari globallashuv va milliy identitet o'rtasidagi munosabatni turli metodologik pozitsiyalardan yoritgan bo'lsalar-da, ularning aksariyati globallashuvni milliy identitetni inkor etuvchi emas, balki uning mazmuni va namoyon bo'lish shakllarini o'zgartiruvchi murakkab ijtimoiy jarayon sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuvlar o'zaro bir-birini to'ldirib, globallashuv sharoitida milliy identitetni tushuntirishning kompleks nazariy modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, o'zbek ilmiy adabiyotida globallashuv va milliy identitet o'rtasidagi munosabat siyosiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, antropologik, aksiologik, qiyosiy-falsafiy hamda sotsiologik yondashuvlar asosida izchil tadqiq etilgan. Har bir ilmiy yo'nalish mazkur muammoning alohida jihatlarini yoritgan bo'lsa-da, ularning umumiy xulosasi globallashuvning milliy identitetga ta'siri murakkab va ko'p qirrali ekanligini tasdiqlaydi. Siyosiy-falsafiy tadqiqotlar milliy davlatchilik va milliy manfaatlarni saqlash masalalariga e'tibor qaratgan bo'lsa, antropologik va aksiologik yondashuvlar identitetning tarixiy, madaniy hamda qadriyatlarga asoslangan mohiyatini ochib beradi. Ijtimoiy-siyosiy va axborotlashgan jamiyatga oid tadqiqotlar esa identitetning zamonaviy transformatsiyasini belgilovchi yangi omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, o'zbek olimlarining ilmiy qarashlari asosida globallashuv milliy identitetni butunlay yo'q qiluvchi emas, balki uni yangi tarixiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlarga mos ravishda transformatsiya qiluvchi dinamik jarayon sifatida talqin qilinadi. Shu sababli kelgusidagi tadqiqotlarda globallashuvning milliy identitetga ta'sirini turli hududlar, ijtimoiy qatlamlar, yosh guruhlari va etnomadaniy jamoalar misolida empirik usullar asosida chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bu esa milliy identitetning zamonaviy rivojlanish qonuniyatlarini yanada aniqroq tushuntirish hamda ushbu yo'nalishdagi nazariy tadqiqotlarni yangi ilmiy dalillar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Otamurodov S. Globallashuv va millat (siyosiy-falsafiy tahlil). - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
2. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
3. Madayeva Sh. Identiklik antropologiyasi. - Toshkent: Noshir, 2015.
4. Odinayeva Z. O'zbek milliy identikligi aksiologik tamoyil va qonuniyatlariga falsafiy-konseptual yondashuv: Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2020.

5. Ravshanova M.M. Yaponiya va O'zbekiston xalqlari milliy identikligining falsafiy-komparativ tahlili: Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2022.
6. Kadirova X. Qoraqalpoq xalqining milliy identiklik xususiyatlari: Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2020.
7. Xursandov A. Yoshlar ijtimoiylashuvida milliy-siyosiy identifikatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari: Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2020.
8. Soqiyev X. Axborotlashgan jamiyatda shaxs identikligining shakllanish xususiyatlari: Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2022.
9. Kalandarova D. Axborotlashgan jamiyat ijtimoiy identikligi shakllanishida din omili: Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2020.